

O‘ZBEK TILINING BOYISHIDA TASVIRIY IFODALARNING O‘RNI
(OT SO‘Z TURKUMI MISOLIDA)

Xolmirzayeva Dildora Olim qizi
Termiz davlat universiteti talabasi
Ilmiy rahbari: D.Ergasheva

Annotatsiya: Ushbu maqola tasviriy ifodalarning til taraqqiyotidagi rivojlanishi hamda Ot so‘z turkumiga kiruvchi tasviriy ifodalarning tilimizda unumli qo‘llanilishi

Tayanch so‘zlar: Tasviriy ifoda, omonimlik parafraza, sinonimlik parafraza, ot so‘z turkumi, parafraza

Ma‘lumki hayotimiz davomida tasviriy ifodalarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Bular asosan tinglovchiga o‘z fikrimizni ifodalashda uzun jumlar tuzishdan qochib, sodda va ixcham tarzda bayon qilishda foydalanamiz, ushbu jarayonda bizga o‘xshatish, sifatlash, ironiya kabi turli vositalar yordam beradi. Ana shu qayd etilgan vositalar tilimizda tasviriy ifodalar deb yuritiladi. Tasviriy ifoda nima?

Tasviriy ifoda- predmet, voqea va hodisalarning o‘z nomi bilan emas, balki ularning muhim xususiyatlarini tasvirlash orqali ifodalovchi birikma: oq oltin-paxta, kumush tola-pilla, oynai jahon-televizor va hokazo.

Tasviriy ifodalar tilshunosligimizda parafraza deb ham yuritiladi. Tasviriy ifodalar uslubiy vosita sifatida nutqqa ko‘tarinkilik, obrazlilik baxsh etadi va badiiy va publisistik uslublarda keng qo‘llaniladi. Tasviriy ifodalarning iboralardan farqi shundaki tasviriy ifodalarda bitta so‘z doim o‘z ma‘nosidagi bo‘ladi. Tasviriy ifodalar ham ba‘zan tilda omonimlik va sinonimlik xususiyatlariga ega .

Omonimlik tasviriy ifodalar: Qora oltin-ko‘mir, neft, Ilm maskani-maktab, kollej

Asr vabosi-OITS, Giyohvandlik,

Sinonimlik tasviriy ifodalar:

Fasllar kelinchagi, uyg‘onish fasli-Bahor

So‘z mulkining sultoni, o‘zbek tilining asoschisi-Alisher Navoiy

Po‘lat ot, Dehqonning qanoti-Traktor va hokazo.

Tilshunos olimlardan Ravshanxo‘ja Rasulov va Ixtiyor Umirovlarning tasviriy ifodalar borasidagi ilmiy tadqiqotlari asosida, „O‘zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lug‘ati“ da ta‘kidlashicha „Tilshunosligimizda shunday so‘z yasovchi qo‘shimchalar borki, ular orqali ham tasviriy ifodalar hosil qilish mumkin. Bunday qo‘shimchalardan -ko‘r, -gir, -kash, -shunos kabilar tasviriy ifodalar yasaydi. Qiyoslang: quruvchi o‘rnida binokor, tilchi o‘rnida tilshunos, yaratuvchi o‘rnida binokor, yozuvchi o‘rnida qalamkash, kosmonavt o‘rnida fazogir va boshqa tasviriy ta‘sirchanlikni ifoda etuvch

qo'shimchalar“ mavjudligini ilmiy asoslab berganlar.

Tasviriy ifodalar asosan ot so'z turkumi doirasida kuzatiladi.

Shaxs otiga misol bo'ladigan tasviriy ifodalar;

- 1.Avg'onchi-baynalmilal jangchi
- 2.Baxt va shodlik kuychisi-Hamid Olimjon
- 3.Ishq kuychisi-Mashrab
- 4.Vatan posponlari-Askarlar
- 5.G'azal mulkinging sultoni-Alisher Navoiy
- 6.Mo'yqalam sohibi-rassom
- 7.Istedod sohiblari -talantli kishilar
- 8.Salomatlik posbonlari-shifokorlar

Narsa otiga misol bo'ladigan tasviriy ifodalar ;

- 1.Bilim bulog'i-kitob
- 2.Hayot ko'zgusi-gazeta
- 3.Kumush choyshab-qor
- 4.O'rmon malikasi-archa
- 5.Oltin boshog-bug'doy
- 6.Dengiz hokimi-kit
- 7.Dala malikasi-makkajo'xori

O'rin-joy otiga misol bo'ladigan tasviriy ifodalar ;

- 1.Yashil shahar -Shahrisabz
- 2.Non shahri-Toshkent
- 3.Kun chiqar mamlakat-Yaponiya
- 4.Yashil qit'a -Avstraliya
- 5.Dunyo tomi -Pomir tog'i
- 6.Ilm o'chog'i-Maktab

Xulosa qilib aytish mumkinki, tasviriy ifodalar nutq jarayonida so'zlovchi uchun muhim bo'lgan vosita hisoblanadi. Ularni ilmiy lug'at sifatida boyitib borish zarur hamda alohida guruh sifatida o'rganish,badiiy adabiyotdagi yangidan yangi ko'rinishlarini aniqlash tilshunosligimiz uchun katta ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. R.Rasulov,I.Umirov.O'zbek tili tasviriy ifodalarning izohli lug'ati. Toshkent 1997
2. Hamroyeva M.A.,,Ona tili“Toshkent 2009
3. Sayfullayeva R .Hozirgi o'zbek tili.O'quv qo'llanma 2009
4. U.Tursunov,Sh.Rahmatullayev,J.Muxtorov.Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1992